

O'ZBEGIM ZULFIYASI

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
davolash ishlari fakulteti talabasi
Xusanova.Sh.Sh

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik kuychisi Zulfiya Isroilova haqidadir. Zulfiyaxonimning mehnatsevarligi, doimo olg'a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiliklarida esankiramasligi har qanday ayol qalbida havas uyg'atadi.

Kalit so'zlar: Shoir, iqtidor, ijod, vatanparvar, mehnatsevar, fidoiylilik, sadoqat.

Toshkent-2026

O'zbekim Zulfiyasi

Sizga atalgandir qo'ldagi gulim,
She'ringiz qo'msaydi doimo dilim.
Yillar yuzingizga solmadi soya,
So'nmadi sizdagi ezgulik g'oya

Ayriliq dilingiz yemirolmadi,
Hijron boshingizni kemirolmadi.
Biz qizlar ozizdan olganmiz ta'lim,
Siz biz uchun yagona tanho muallim.

Kitobingiz qo'lga olganda har on,
Sevib dildan o'qir har bir qiz-o'g'lon.

Sizga qoyil qoldi butun yurt, jahon,
Har bir sheri dilga yaqin qadrdon

Ijod gulshanidan gullar tergansiz.
Ko'p dillarga malham, darmon bo'lgansiz,
Sizga ta'zimdadir avlodlar hamon.
Buyuk O'zbekimning Zulfiyasi Siz!

Zulfiya hayoti va ijodiga bir nazar

«Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz»

Shavkat Mirziyoyev.



Taniqli o'zbek shoirasi Zulfiya 1915- yilning 1-martida Toshkent shahrida Isroil temirchi oilasida tug'ildi. 1922-yildan 1931-yilgacha maktabda, so'ng 1931-1934-yillar orasida qizlar bilim yurtida tahsil oldi. Mehnat faoliyatini juda erta boshlagan shoira deyarli bir umr jurnalistika va nashriyot sohasida ishladi. U 1935 - 1938- yillarda Til va adabiyot instituti aspiranti, 1938 - 1948-yillar mobaynida Bolalar

nashriyoti muharriri, O'zbekiston davlat nashriyoti bo'lim mudiri, 1953- yilgacha

«Saodat» jurnalida bo‘lim mudiri, 1953- yildan to 1980-yilga qadar, salkam o‘ttiz yil davomida, shu jurnalning Bosh muharriri lavozimida ishlab keldi.

Uzoq ijodiy umri davomida o‘ttizga yaqin she’riy to‘plamlar, o‘ndan ortiq dostonlar yaratdi. Shoir hammani o‘ylatadigan, barcha kishilarga jaxldor bo‘lgan holatlarni she’rga soladi. Shuning uchun ham yozganlari ko‘pchilikka manzur bo‘ladi.

Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan turmush qurgan. Biroq ular orzularga to‘la hayot kechirayotgan pallada 1944 yil 3 iyulda Hamid Olimjon hayotdan ko‘z yumadi. Zulfiyaning boshiga og‘ir musibat tushdi. Ayirilik alamlari, hijron azoblari tufayli tug‘yon urgan shoiraning qalbiga yana she’r xamdard bo‘ldi. Zulfiya ijodida hijron, sadoqat to‘g‘risidagi she’rlar salmoqli o‘rin egallaydi. Bu – tabiiy hol. Negaki, u o‘zining ikki kishi uchun yashalgan uzoq umri davomida ayriliqning ellik ikki yillik yo‘lini bosib o‘tib, hijron kuychisi va sadoqat timsoliga aylandi. Shoiraning nihoyasiz ayriliqning hasratlari aks etgan she’rlarida badbinlik, umidsizlik, noshukurlik, so‘ngsiz qayg‘uga asirlik tuyg‘ulari yo‘q. Uning hijronzada she’rlarida suyguvchi, suygani bois ayriliqdan qattiq kuyguvchi, ammo hayotdagi yorug‘liklarni ko‘ra olguvchi va ko‘rganiga shukronalik qilguvchi shokira ayol sezimlari aks etgan. Vafodor yor va sadoqatli do‘stning murakkab insoniy tuyg‘ulari "Hijron kunlarida", "Baxtiyor sevgini kuylardi sozim", "Ne baloga etding mubtalo", "Sen haydasan yuragim" kabi she’rlarida hazin ohangda yangragan edi.

Zulfiya she’riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho‘qqisi bo‘lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she’rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo‘yoq va timsollarda gavdalanadi. Xalq orasida shoiraning “Oydinda”, “Sensiz”, “Yurak”, “Falak”, “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “O‘g‘irlamang qalamim bir kun”, “Bo‘m-bo‘sh qolibdi bir varaq qog‘oz” kabi she’rlari, “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush”, “Mushoira” kabi she’rlari mashhur.

Iqtidorli shoir va yozuvchi, inson qalb tug‘yonlarini o‘tkir bilimdoni bo‘lib, turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she’rlar, hikoyalar,

ocherklar, publististik maqolalar va gazeta xabarlarini. “Uni Farhod der edilar”, “Quyoshli qalam”, “Xotiram siniqlari” kabi lirik va liro-epik dostonlar muallifi.

U tomonidan, shuningdek, o‘zbek bastakorlarining operalariga librettolar ham yozilgan, masalan, “Zaynab va Omon” operasiga libretto. Shu bilan birga, turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjon qalamiga mansub “Semurg” dostoni mavzusi asosida, ertak-sahna asarini ham yozgan. Shoira adabiy-ijtimoiy faoliyati uchun ko‘pgina davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Zulfiya she‘riyati hissiy ta’sirchanligi, tuyg‘ulari rozining originalligi, mushohada va ifoda tarzining o‘ziga xosligi bilan betakrordir. Ayniqsa, ijodining umumbashariyligi va zamonaviyligini, asarlarida sadoqatu vafo tuyg‘ulari insoniylikning bosh mezonini darajasiga ko‘tarilganligini kashf etish hamon dolzarbdir. Zulfiya yangi davr ayollar she‘riyatining manshaida turib XX asr o‘zbek adabiyotining ayol shoiralari poetik maktabini yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg‘a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchilik larida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o‘zini yo‘qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg‘otadi.

O'zbek adabiyotining barhayot siymosi



Zulfiya lirikasi teran tafakkur va jo'shqin hissiyot vobastaligidan hosil bo'lgan she'riyatdir. Shoirira lirik qahramoni ko'pda yuksak intellekt sohibasi ekanligi sezilib turadi. U biroz o'ychan, ba'zan falsafiy, ba'zida esa jiddiy va ta'sirchan. Shoirira ma'naviy-ruhiy

izlanishlarida, poetik timsol yaratish jarayonida his-tuyg'ular manzarasi, kechinma tarangligi, o'tkir dramatik vaziyat va kolliziyalar bo'rtib turadi. Unda makon va zamon chegarasining qamrovlari keng, o'tmish, bugun va kelajak voqeligi inson taqdiri, ertasi bilan esh tasvirlanadi.

Uning dastlab 1932 yil "Hayot varaqalari" she'rlar to'plami nashr etilgan. Shundan keyin uning

- "Temiroy" (1934):
- "She'rlar", "Qizlar qo'shig'i" (1939) :
- "Uni Farhod der edilar" (1943),
- "Hijron kunlarida" (1944)
- "Mushoirira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush"
- "O'ylar" (1965
- "Visol" (1972),
- "Yillar, yillar..." (1975) singari she'riy kitoblari Zulfiyaga shuhrat keltirdi.

Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etish ishiga bag'ishladi.

A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka va b. ning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari ko'plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan.

Zulfiya xalqaro Javaharlal Neru (1968), "Nilufar" (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1970) laureati. Shuningdek, u Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" (1972) ordeniga sazovor bo'lgan.

O'zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etdi. Toshkentdagi ko'chalardan biriga uning nomi berilgan.

Mashhur o'zbek shoiri Hamid Olimjonning turmush o'rtog'i, o'ziga xos she'riyati bilan minglab kitobxonlar qalbini rom etgan iste'dodli shoira Zulfiya 1996-yilning 1-avgustida vafot etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil 27 aprelda Jizzax Viloyatiga tashrifi chog'ida adabiyotimizning ulkan namoyondalari Hamid Olimjon va Zulfiyaning adabiy merosini keng targ'ib qilish lozimligini alohida ta'kidlagan edi. Shu maqsadda ijodkorlar hayoti va faoliyati bilan bog'liq Hamid Olimjon va Zulfiya xiyoboni barpo etish uning markazida ikkala ijodkor haykali o'rnatish, Hamid Olimjon va Zulfiya maktabini tashkil etish takliflarini ilgari surgan. Ana shu ezgu istak bugun ro'yobga chiqdi. Jizzax shahridagi "Ho'ja Nuriddin" madrasasi qayta rekonstruksiya qilinib, Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi joylashtirildi va 2017 yil 3 noyabr kuni o'z faoliyati boshladi.

Xalqimiz tarixida insoniy kamoloti va millatimizni faxri bo'lgan ulug' zotlar benihoya ko'p. Ammo ular qatorida yulduzlar aro quyoshday charaqlab turgan buyuk zot - Zulfiyaxonim xalq uchun, kelajak avlod uchun, o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi, teran tafakkuri, vatanimiz buguni va ertasida behad yuksak o'rin tutadi.

MATONAT TIMSOLI



Zulfiya Isroilova - sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol. Shoir she'riyatining nufuzi - bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarini yorqin tasvirlaganidadir

O'zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi, xalqaro "Nilufar" Javohirlal Neru nomidagi davlat mukofotlari sohibasidir.

Matonat timsoli bo'lmish Zulfiyaxonim Isroilova xotirasiga prezidentimizning 1999-yil 10-iyundagi farmoniga binoan respublikamizda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti ta'sis etildi

Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida a'lo xulqi, donoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari bilan alohida iste'dodini namoyon qilib ta'lim olayotgan, istiqbol g'oyalarini amalga oshirish yo'lida astoydil mehnat qilayotgan, 30 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga: Adabiyot, madaniyat, sport, san'at, fan, ta'lim sohalardagi alohida yutuqlari uchun beriladi.

Bu mukofotni qo'lga kiritish har bir o'zbek qizi uchun cheksiz iftixor va g'urur tuyg'usini beradi. Uni qo'lga kiritgan Zulfiyaxonim davomchilariga esa unga munosib bo'lish uchun harakat qilishga da'vat qiladi.

Nomzodlar shoir hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha nasr, she'r, ilmiy, sport va rasm chizish yo'nalishlarida ijodiy ishlari bilan qatnashdilar.

"Zulfiya" nomidagi maxsus stipendiyasiga 2023-yilda sazovor bo'lgan talabalar:

1. Tursunova Zebiniso Avazbek qizi, 1-son davolash fakulteti

506-guruh talabasi;

2. Bolunts Yevgeniya Andronikovna, 2-son davolash fakulteti 403-guruh talabasi;

3. O'ktamova Dinara Zafar qizi, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti 502-guruh talabasi;

4. Turobova Shoxista Shavkat qizi, Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi 302-guruh talabasi;

5. Abduraimova Adiba Axmadjon qizi, Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti Tibbiy biologiya yo'nalishi 102- guruh talabasi;

6. Ojasvi Sharma, Xorijiy fakultet 201-guruh talabasi.

Zulfiyaxonim xayoti va ijodi-biz yoshlar uchun ibratdur

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 20-may kuni Toshkentda barpo etilgan Adiblar xiyoboni va xiyobon yonida tashkil etilgan kutubxonaga tashrifi chog'ida Alisher Navoiy haykali atrofida 20 dan ziyod atoqli shoir va adiblarning haykallari yaxlit joylashtirilgan me'moriy va badiiy kompozitsiya hamda uning mantiqiy yechimi bilan tanishib, Adiblar xiyobonini adabiyot, ma'rifat va madaniyat maskaniga aylantirish haqida ko'rsatmalar bergan edi. Prezidentimiz har bir adib haykali muayyan oliy o'quv yurtiga biriktirilib, bu yerda ochiq darslar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berdi. Faqat xiyobon bilangina cheklanib qolmasdan, adiblar ijodini chuqur o'rganish, ularning ibratli umr yo'llari haqida kitoblar va filmlar yaratish, yangi asarlar yozish muhimligi ta'kidlandi.

Adiblar xiyoboni bugungi kunda chin ma'nodagi adabiyot, ma'naviyat va maskaniga aylandi.

Oliy ta'lim tizimida yoshlarni adabiyotga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 3 iyundagi 311-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida TTA rektori tomonidan №360 sonli buyruq tasdiqlandi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

tomonidan “Adiblar hiyoboni”ga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar ijrosi bo’yicha “Yo’l xaritasi” ga muvofiq TTA ning chora-tadbirlar reja-jadvali ishlab chiqildi.

Shu munosabat bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi talaba-yoshlari bilan Zulfiyaxonim yodgorlik haykali oldida ma’naviy ma’rifiy tadbirlar tashkil etish, sevimli shoiraning hayoti va ijodini o’rganish va keng targ’ib qilish ishlari

boshlab yuborildi va hozirgacha qisqa vaqt mobaynida ko’plab ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Zulfiya nomidagi ijod xonasi tashkil etildi. Toshkent tibbiyot akademiyasining kutubxonasida shoira ijodiga mansub asarlar burchagi tashkil etilib, unda shoira Zulfiyaning barcha ijod namunalari jamlandi. Shuningdek, TTA rasmiy veb saytida “Zulfiyaxonim ijodini o’rganamiz” saxifasi tashkil etildi.



Hozirda
2225 tadan
ziyod talabalar
a’zo bo’lgan
“Keling,
Vatanimizga
qanot
bo’laylik”,
“TTAning
ijodkor

talabalari” telegram guruhlarida Zulfiyaxonimning hayot va ijod yo’llariga bag’ishlab erkin yo’nalishlarda (audiroluk, videorolik, taqdimot, she’r, insho, qo’shiq, kuy, rassomchilik mahorati) ijodiy ishlar tanlovlari e’lon qilindi. Tanlov tashkilotchilariga bugunga qadar talabalar tomonidan Zulfiya qalamiga mansub she’rlar asosida tayyorlangan audiosherlar, talabalarning o’z badiiy va tasviriy ijod namunalari, Zulfiya asarlari bo’yicha talabalar tomonidan ijro etilgan kuy, qo’shiqlar taqdim etilmoqda.

Bulardan tashqari Toshkent tibbiyot akademiyasida “Men sevgan shoira”, “Baxtim shul – O‘zbekning Zulfiyasiman” mavzularida onlayn insholar tanlovlari va “Zulfiyaxonim portretiga chizgilar” rukni ostida rasmlar ko‘rgazmasi tashkil etilib, unda 100 dan ortiq talabalar faol ishtirok etib, Zulfiya ijodini batafsil yoritib berishdi.

Yana bir muhim yangiliklardan biri bugungi kunda Toshkent tibbiyot akademiyasida “Zulfiyaxonim izdoshlari” qizlar klubi tashkil etilgan bo‘lib, unda hozircha 20 dan ziyod Toshkent tibbiyot akademiyasining ijodkor talaba qizlari faoliyat yuritishmoqda.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rahbariyati, yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, Akademiya professor-o‘qituvchilari nafaqat Zulfiya ijodi, balki O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi rejasi asosida o‘tkazilayotgan boshqa adiblar ijodi va faoliyatini o‘rganish oyligida faol ishtirok etib, adiblar hayotin ilmiy ijodini mukammal o‘rganib, talabalar orasida keng targ‘ib etishmoqda.

Bugun men ko‘zlarimda nur, qo‘limda qalbning ovozi – she’rlar bilan yashar ekanman, barchasiga atrofimdagi mehribon insonlarning qo‘llab-quvvatlovi tufayli erishdim. Tibbiyot oliygohida o‘qish va hayotning eng murakkab savollariga javob izlash menga ilhom berdi. Ammo bu yo‘lda yolg‘iz bo‘lmasligimni bilish – meni yanada kuchli qildi.

Ota-onamning duolari va sevgisi meni o‘z oyog‘imda turishga o‘rgatdi. Ularning menga bo‘lgan ishonchi – ruhimdagi eng katta ilhom manbai. Ustozlarim esa bilim va tajribalarini ulashib, nafaqat shifokorlik, balki inson bo‘lib yetishishni o‘rgatishdi. Ular menga tanani emas, qalbni ham davolash kerakligini tushuntirishdi.

Va, albatta, kitoblar... She’riyat, adabiyot va tibbiyot – bu uch olam mening fikrlarimni shakllantirdi, orzularimga qanot berdi. Hayotimning har bir sahnasida ushbu yo‘ldoshlarim bo‘lgani uchun qanchalik minnatdorligimni so‘z bilan izohlash qiyin.

Endi men har bir yozgan misramda, har bir qilgan ishimda sizlarning mehr va muhabbatingizni aks etishi uchun harakat qilaman. Sizlar bilan birgalikda bu hayotning dardlariga qarshi turib, uni go'zalroq qilishga harakat qilaman. Rahmat sizlarga, qalbimning yulduzlari!".

MUNDARIJA:

O'zbekim Zulfiyasi.....

Zulfiyaxonim hayoti va ijodiga bir nazar.....

O'zbek ada

biyotining barhayot siymosi.....

Matonat timsoli.....

Zulfiyaxonim izdoshlari

Zulfiyaxonim hayot yo'li-biz yoshlarga ibrat maktabidir.....